O‘zbekiston Respublikasi yalpi hududiy mahsuloti

2026- yil yanvar-sentabr oylari uchun[1]

I. Yalpi hududiy mahsulot
II. Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi
III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot
IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAIM (YAHM)dagi ulushi
V. Izohlar
VI. Havolalar

I. Yalpi hududiy mahsulot

Statistika dasturiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan 2026- yil yanvar-sentabr oylari uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (YAHM)ni dastlabki baholash ishlari amalga oshirildi.

YAIM (YAHM) hajmi va o‘sish sur’atlari, *yanvar-sentabr*

Hududlar	2025- yil[2]		2026- yil	
	Hajmi, *mlrd so‘m*	O‘sish sur’atlari, *% da*	Hajmi, *mlrd so‘m*	O‘sish sur’atlari, *% da*
O‘zbekiston Respublikasi[3]	1 494 938,7	108,0	1 755 485,8	108,3
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	43 727,9	105,1	50 805,9	108,9
Andijon viloyati	82 578,1	107,9	93 399,4	109,3
Buxoro viloyati	65 462,9	106,8	77 618,8	109,5
Jizzax viloyati	44 114,4	106,3	51 959,4	109,5
Qashqadaryo viloyati	79 976,3	105,6	92 484,1	108,6
Navoiy viloyati	125 776,6	108,1	166 692,7	108,1
Namangan viloyati	66 155,0	110,9	77 164,8	109,8
Samarqand viloyati	101 232,0	105,3	118 857,4	109,4
Surxondaryo viloyati	55 830,0	106,4	64 956,9	108,7
Sirdaryo viloyati	28 205,1	112,5	32 790,0	108,9
Toshkent viloyati	146 128,1	108,2	179 966,6	109,6
Farg‘ona viloyati	88 643,0	109,9	104 364,5	110,5
Xorazm viloyati	49 114,4	108,2	57 556,2	109,6
Toshkent sh.	312 239,2	112,3	372 098,5	113,1

Mavzuga doir havola:
YAIM (YAHM) hajmi (choraklik)
YAIM (YAHM) o‘sish sur’atlari (choraklik)


[1] Dastlabki ma’lumotlar

[2] 2025- yilning yanvar-sentabr oylari ma’lumotlari Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijalarini hisobga olgan holda qayta baholangan.

[3] Hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan ma’lumotlarni qo‘shgan holda

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida respublika bo‘yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahri **21,2** % ulush bilan eng katta hissa qo‘shdi. Toshkent va Navoiy viloyatlari **10,3** % va **9,5** % ko‘rsatkichlari bilan keyingi o‘rinlarni egallab turibdi. Respublika YAIMini shakllantirishda eng kam ulush Qoraqalpog‘iston Respublikasi (**2,9** %) va Sirdaryo viloyatiga (**1,9** %) to‘g‘ri kelgan.

2026-yilning yanvar-sentabrida YAIMni shakllantirishda hududlarning ishtiroki




II. Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida
YAIM (YAHM)ning tarmoqlar bo‘yicha hajmi, *mlrd so‘m*

Hududlar	YAIM (YAHM)	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar sohasi	Mahsulotlarga sof soliqlar
O‘zbekiston Respublikasi	1 755 485,8	261 702,8	450 422,3	140 159,8	831 018,5	72 182,3
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	50 805,9	10 391,1	10 604,1	4 485,2	23 958,8	1 366,7
Andijon viloyati	93 399,4	21 905,6	25 120,4	7 210,7	37 286,2	1 876,5
Buxoro viloyati	77 618,8	22 174,4	15 770,2	6 816,0	31 077,4	1 780,8
Jizzax viloyati	51 959,4	19 638,0	10 525,9	3 740,0	17 080,0	975,5
Qashqadaryo viloyati	92 484,1	26 700,3	17 747,2	8 159,9	37 364,0	2 512,7
Navoiy viloyati	166 692,7	11 048,8	130 557,9	5 594,0	18 039,1	1 452,9
Namangan viloyati	77 164,8	17 970,2	14 405,9	6 878,2	36 699,8	1 210,7
Samarqand viloyati	118 857,4	28 958,5	21 406,0	6 667,6	59 956,7	1 868,6
Surxondaryo viloyati	64 956,9	24 798,4	7 778,0	5 737,3	25 928,1	715,1
Sirdaryo viloyati	32 790,0	8 556,5	10 332,8	2 635,7	10 419,6	845,4
Toshkent viloyati	179 966,6	29 908,1	78 732,0	13 870,8	52 910,9	4 544,8
Farg‘ona viloyati	104 364,5	23 616,1	19 211,1	9 751,1	49 662,0	2 124,2
Xorazm viloyati	57 556,2	16 036,9	9 453,1	5 634,8	25 419,4	1 012,0
Toshkent sh.	372 098,5	-	71 656,0	42 865,5	233 311,2	24 265,8

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHM tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Surxondaryo (**38,6** %) va Jizzax (**38,5** %) viloyatlarida, sanoatning eng yuqori ulushi Navoiy (**79,0** %) va Toshkent (**44,9** %) viloyatlarida, qurilishning eng yuqori ulushi Toshkent shahri (**12,3** %) va Xorazm viloyatida (**10,0** %), xizmatlar sohasining eng yuqori ulushi esa Toshkent shahri (**67,1** %) va Samarqand viloyatida (**51,2** %) kuzatildi.

2026-yilning yanvar-sentabrida YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi, *jamiga nisbatan % da*



2026- yilning yanvar-sentabr oylarida
YAIM (YAHM)ning tarmoqlar bo‘yicha o‘sish sur’atlari, *% da*

Hududlar	YAIM (YAHM)	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar sohasi	Mahsulotlarga sof soliqlar
O‘zbekiston Respublikasi	108,3	104,6	108,1	112,5	108,9	108,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	108,9	103,6	107,1	127,2	109,0	112,9
Andijon viloyati	109,3	103,7	108,1	118,4	112,1	109,5
Buxoro viloyati	109,5	104,3	108,7	119,6	111,2	114,3
Jizzax viloyati	109,5	105,1	113,1	132,2	108,1	113,3
Qashqadaryo viloyati	108,6	104,8	108,4	113,4	109,7	116,2
Navoiy viloyati	108,1	104,3	107,4	119,3	111,7	108,8
Namangan viloyati	109,8	106,3	109,0	120,9	109,7	113,0
Samarqand viloyati	109,4	104,3	109,5	127,3	110,1	115,6
Surxondaryo viloyati	108,7	105,7	108,6	119,9	109,3	113,6
Sirdaryo viloyati	108,9	108,0	108,2	113,8	108,9	111,9
Toshkent viloyati	109,6	103,9	108,4	119,5	112,0	109,7
Farg‘ona viloyati	110,5	103,9	108,5	126,9	111,6	113,2
Xorazm viloyati	109,6	104,0	108,6	127,6	110,0	113,8
Toshkent sh.	113,1	-	107,9	113,1	114,7	114,6

III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyati O‘zbekistonning barcha hududlari orasida aholi jon boshiga YAHM hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichli hududga aylandi. Joriy narxlarda bu ko‘rsatkich **140,0** mln so‘mni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga YAHM hajmi bo‘yicha ikkinchi o‘rinda **114,5** mln so‘m bilan Toshkent shahri, uchinchi o‘rinda esa **47,6** mln so‘mlik natija bilan Toshkent viloyati bo‘ldi.


Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) hajmi va o‘sish sur’atlari, *yanvar-sentabr*

Hududlar	2025- yil		2026- yil	
	Hajmi, *ming so‘m*	O‘sish sur’atlari, *% da*	Hajmi, *ming so‘m*	O‘sish sur’atlari, *% da*
O‘zbekiston Respublikasi	38 746,8	105,9	44 692,3	106,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	20 494,9	103,7	23 547,4	107,7
Andijon viloyati	23 659,3	105,8	26 293,4	107,4
Buxoro viloyati	31 413,7	105,0	36 707,9	107,9
Jizzax viloyati	29 321,6	104,2	33 869,6	107,4
Qashqadaryo viloyati	21 972,1	103,2	24 874,0	106,3
Navoiy viloyati	107 135,1	106,4	140 042,6	106,6
Namangan viloyati	21 262,8	108,6	24 349,9	107,8
Samarqand viloyati	23 275,5	103,1	26 816,2	107,4
Surxondaryo viloyati	18 987,9	103,9	21 609,1	106,4
Sirdaryo viloyati	29 865,6	110,5	34 166,9	107,2
Toshkent viloyati	39 318,7	106,0	47 612,7	107,7
Farg‘ona viloyati	21 169,0	107,8	24 472,3	108,5
Xorazm viloyati	23 216,4	106,2	26 760,4	107,8
Toshkent sh.	97 837,7	110,4	114 477,7	111,1

IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAIM (YAHM)dagi ulushi

2026- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, kichik biznesning respublika YAIMidagi ulushi **53,8** % ni tashkil etdi. Hududlarda kichik biznesning eng katta ulushi Surxondaryo (hududda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat umumiy hajmining **78,0** % ini tashkil etgan), Farg‘ona (**76,4** %) va Namangan (**75,5** %) viloyatlarida kuzatildi. Kichik biznesning eng kam ulushi Navoiy (**17,7** %) va Toshkent (**53,8** %) viloyatlarida qayd etildi.

2026- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAIM (YAHM)dagi ulushi



V. Izohlar

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) Milliy hisoblar tizimi (MHT)ning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanib, iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini hamda ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini o‘zida aks ettiradi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hududiy rivojlanishning umumlashtiruvchi ko‘rsatkichidir. YAHM o‘zining iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, YAIM bilan bir xil ko‘rsatkich bo‘lib, u mazkur hududning rezidentlari bo‘lgan iqtisodiy birliklar tomonidan ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

YAHM hisob-kitoblari respublika darajasida O‘zbekiston Respublikasining 14 ta ma’muriy-hududiy birligi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyatlar va Toshkent shahri) bo‘yicha ishlab chiqarish usuli asosida amalga oshiriladi.

YAHMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli MHTning ishlab chiqarish hisoblarini tuzish tamoyillariga asoslanadi va YAHMni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy narxlardagi yalpi qo‘shilgan qiymat va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali baholashni nazarda tutadi.

YAHM va uning tarkibiy qismlarini hisoblashning uslubiy tamoyillari butun iqtisodiyot bo‘yicha YAIMni hisoblash tamoyillari bilan bir xil. Lekin YAIMning ayrim tarkiblari hududlar kesimida shakllantirilmaydi yoki hududlar darajasida ma’lumotlarning yo‘qligi va cheklanganligi, shuningdek, ularni hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari sababli hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydi. Shu sababdan, ular O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha taqsimlanmagan qism sifatida hisob-kitoblarga kiritiladi.

Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulotni shakllantirishda dastlabki axborot sifatida yalpi ichki (hududiy) mahsulot hamda demografiya va mehnat statistikasi ma’lumotlaridan foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan 2017-2025- yillar uchun yalpi ichki (hududiy) mahsulot va uning choraklar bo‘yicha ko‘rsatkichlari qayta hisoblandi.

VI. Havolalar

Yalpi hududiy mahsulotni hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom
Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha uslubiy nizom
Yalpi hududiy mahsulot

Chop etishga mas’ul:
Milliy hisoblar boshqarmasi

Manzil: *100170, Toshkent,*
Mustaqillik shoh ko‘chasi, 63
Aloqalar: *info@stat.uz*
Tel.: 71-203-80-00 (1060)